



## NATIONAL COLOR IN ABDURAHİM TOLIBOV'S WORK “کتاب احمد”

**Robiya Nuriddinbekova**

*Master's student, Tashkent State University of Oriental Studies*

*Higher School of Iranian and Afghan Studies*

[robiyanuriddinbekova@icloud.com](mailto:robiyanuriddinbekova@icloud.com)

*Tashkent, Uzbekistan*

**O. Turdiyeva**

*Associate Professor at the Higher School of Iranian and Afghan Studies*

*TSUOS, Doctor of Philological Sciences*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Mirza Abdurrahim Talibov, Kitab-i Ahmad, Iranian Enlightenment, Nowruz, national identity, Constitutional Revolution, educational reform, dialogic narrative.

**Abstract:** This article analyzes the socio-political and educational views of Mirza Abdurrahim Talibov Tabrizi, one of the prominent representatives of the Iranian Enlightenment movement. In particular, through his work Kitab-i Ahmad, the study examines the relationship between science and religion, issues of education, national identity, and the artistic-aesthetic interpretation of Nowruz. The depiction of Nowruz in the work is interpreted as a symbol of historical memory, social unity, and spiritual renewal. The research highlights Talibov's significant contribution to the development of constitutional thought and the national awakening process in Iran.

**Received:** 25.03.26

**Accepted:** 26.03.26

**Published:** 27.03.26

## ABDURAHİM TOLIBOVNING “کتاب احمد” ASARIDA MILLIY KOLORIT

**Robiya Nuriddinbekova**

*Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi magistranti*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

[robiyanuriddinbekova@icloud.com](mailto:robiyanuriddinbekova@icloud.com)

*Toshkent, O'zbekiston*

**O. Turdiyeva**

*TDSHU, “Eronshunoslik va afg'onshunoslik” oliy maktabi dotsenti*

*Filologiya fanlari doktori*

*Toshkent, O'zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**


---

**Kalit soʻzlar:** Mirzo Abdurahim Tolibov, Kitobi Ahmad, Eron maʼrifatparvarligi, Navroʻz, milliy oʻzlik, Mashruta, maʼrifiy islohot, dialog janri.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Eron maʼrifatparvarlik harakatining yirik namoyandasi Mirzo Abdurahim Tolibov Tabriziyning ijtimoiy-siyosiy va maʼrifiy qarashlari tahlil qilinadi. Xususan, uning “کتاب احمد” asari misolida ilm-fan va din munosabati, tarbiya masalalari, milliy oʻzlik hamda Navroʻz bayramining badiiy-estetik talqini oʻrganiladi. Asarda Navroʻz timsolida tarixiy xotira, ijtimoiy birlik va maʼnaviy yangilanish gʻoyalari yoritilganligi koʻrsatib beriladi. Tadqiqot natijasida Tolibov merosining Eron miliy tafakkuri va uygʻonish jarayonidagi oʻrni ochib beriladi.

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ КОЛОРИТ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АБДУРАХИМА ТОЛИБОВА**  
«کتاب احمد»

**Робия Нуриддинбекова**

*Магистрант Ташкентского государственного университета востоковедения*

*Высшая школа иранистики и афганистики*

[robiyanuriddinbekova@icloud.com](mailto:robiyanuriddinbekova@icloud.com)

*Ташкент, Узбекистан*

**О. Турдиева**

*Доцент Высшей школы иранистики и афганистики ТГУВ*

*Доктор филологических наук*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Мирзо Абдурахим Толибов, Китоби Ахмад, иранское просветительство, Навруз, национальная идентичность, Машruta, просветительские реформы, жанр диалога.

**Аннотация:** В данной статье анализируются общественно-политические и просветительские взгляды Мирзо Абдурахима Толибова Тебризи — одного из выдающихся представителей иранского просветительского движения. В частности, на примере его произведения «کتاب احمد» рассматриваются вопросы соотношения науки и религии, воспитания, национальной идентичности, а также художественно-эстетическая интерпретация праздника Навруз. Показано, что через образ Навруза в произведении раскрываются идеи исторической памяти, общественного единства и духовного обновления. В результате исследования выявляется роль наследия Толибова в формировании иранского национального мышления и процесса пробуждения.

---

**Kirish.** Abdurahim Tolibov Eron ma'rifatparvarlik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning g'oyalari nafaqat Eron, balki boshqa Sharq mamlakatlarida konstitutsiyaviy tuzumning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Mirzo Abdurahim Tolibov Tabriziy 1834-yilda Tabrizning Sorxob mahallasida tug'ilgan va 1910-yil oxiri yoki 1911-yil boshlarida Dog'istonning Temirxon Sho'ra shahrida vafot etgan. U Erondagi konstitutsiyaviy harakat (Mashruta)dan oldingi davr ma'rifatparvar ziyolilaridan biri edi. U Kavkazdagi madaniy va siyosiy jonlanish davrida shakllandi, yangi siyosiy madaniyat va bilimlardan ta'sirlandi. 55 yoshidan boshlab o'z asarlarini yozishga kirishdi hamda katta obro'-e'tibor qozondi. Ayniqsa, yangi ijtimoiy va siyosiy g'oyalarni targ'ib qiluvchi maqolalari, erkinlik va qonun ustuvorligini qo'llab-quvvatlashi hamda tabiiy fanlarni sodda fors tilida yoygani sababli Eron taraqqiyparvarlari, ziyolilari orasida mashhur bo'ldi. 1906-yilda birinchi Majlisi Sho'royi Milliyga Tabrizdan deputat etib saylandi. Biroq u deputatlikni qabul qilgan bo'lsa-da, Tehronga bormay, Temirxon Sho'rada qoldi va 77 yoshida vafot etdi .

“Mirzo Abdurahim Tolibov Tabriziy “Masolik ul-muhsinin”, “Kitobi Ahmad” va boshqa asarlari orqali ko'plab mashrutachilar tafakkuriga ta'sir ko'rsatdi. Yangilik tarafdorlari uning fikr va asarlarini qo'llab-quvvatlagan bo'lsalar, ayrim ruhoniy ulamolar esa uning qarashlariga qarshi chiqqanlar. Bunga sabab — uning asarlaridagi ayrim fikrlar ularning nazarida islom dini asoslariga mos kelmas edi. Bolalik va o'smirlik yillari Eronda o'tgan Tolibov muhojirlikdagi yashagan davrida katta ma'rifiy va xayriya ishlarini amalga oshirdi. U bir qancha bolalar va kattalar maktablari hamda qizlar litseyini tashkil etgan, moliyalashtirgan va ularga rahbarlik qilgan, Tamirxon Sho'ro qamoqxonasining ayrim xarajatlarini nazorat qilish va moliyalashtirish qo'mitasi a'zosi, Qizil Xoch jamiyati va Statistika qo'mitasi a'zosi bo'lgan .”

“Safinayi Tolibiy” سفینه طالبی yoki “Ahmadning kitobi” كتاب احمد uning birinchi kitobi bo'lib, adib aynan shu asari bilan mashhur bo'lgan. Asar dialog shaklida yaratilgan bo'lib, unda ota va o'g'il o'rtasidagi suhbatlar markaziy o'rin egallaydi. Ushbu dialoglar orqali ilm-fan va din munosabati, madaniyat va ma'rifat masalalari, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, savdo-sotiq jarayonlari, ishlab chiqarish va sanoat taraqqiyoti kabi turli va dolzarb mavzular qahramonlar tilidan tahlil etiladi. Dialoglar nafaqat fikr almashuvi, balki o'quvchini mushohada qilishga, sabab-oqibat munosabatlarini anglashga undovchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Asarning bosh qahramoni Ahmad ismli 7 yashar bolakay bo'lib, muallif o'z qarashlarini uning tilidan bayon qiladi. Bosh qahramon Ahmad yozuvchining tasavvuri mahsuli hisoblanadi. Ahmad kichik yoshda bo'lsa-da, tarbiyali, yoshiga nisbatan —————ancha zehqli, o'zgacha fikrlaydigan, otasining javoblarini qanchalik chuqur, uzun bo'lmasin qunt bilan eshita oladigan, hamda murakkab mavzularda ham xuddi kattalardek mulohaza qila oladigan bola. Muallif ba'zida unga آقا احمد “Janob Ahmad” deb murojaat qilganligining guvohi bo'lish mumkin.

“Ahmadning kitobi” asari farzand tarbiyasi, muomala kabi turli ijtimoiy masalalar, mavzularni yoritish bilan bir qatorda, milliy kolorit masalasi ham o‘ziga xos badiiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda xalqning tarixiy xotirasi, urf-odat va an‘analari, turmush tarzi jonli va ta’sirchan ifoda etilgan. Muallif milliylikni faqat tashqi bezak yoki folklor unsuri sifatida emas, balki ma’naviy-estetik tamoyil darajasida talqin qiladi. Xususan, kitobning 5-suhbatida Eron xalqining qadimiy, milliy bayrami Navro‘zning nishonlanishi, “Haft sin” dasturxonidan tortib, bayram oldi tayyorgarliklariga ham alohida o‘rin ajratilgan.

فردا عيد نوروز است چندی است برای پذیرایی مهمانان عزیز و محترم ، که بی دعوت به دید و بازدید همدیگر می روند، مشغول هستیم برای اطفال لباس تازه دوخته اند .واقعاً عيد نوروز از اجله و اقدم اعياد ملی روی زمین است جادارد که ما به شکوه و قدمت این عيد خودمان در نزد سایر ملل .ببالیم بعد از ظهر رفتیم به زیارت اهل قبور اطفال هم بودند ایشان را از طفولیت به احترام و زیارت مقبره های اموات باید معتاد نمود و رسوم و عادات ملیه را به طور رسوخ در دل آنها، که حکم نقش حجر دارد مرتسم داشت

“Ertaga Navro‘z bayramidir. Bir necha kundan beri aziz va hurmatli mehmonlarni kutib olish uchun mashg‘ulmiz, ular bir-birining holidan xabar olish uchun taklifsiz ham borib keladilar. Bolalar uchun yangi kiyimlar tikib qo‘yilgan. Haqiqatan ham, Navro‘z yer yuzidagi eng ulug‘ va eng qadimiy milliy bayramlardan biridir. O‘z bayramimizning shukhi va qadimiyligi bilan boshqa millatlar oldida faxrlanishimiz joizdir.

Tushdan keyin qabristonga, marhumlar ziyoratiga bordim. Bolalar ham bor edi. Ularni bolalikdan boshlab marhumlar qabrlarini hurmat bilan ziyorat qilishga odatlantirish kerak va milliy rasm-rusum hamda urf-odatlarini ularning qalbiga singdirish lozim. Bu esa toshga o‘yilgan naqsh hukmida mustahkam o‘rnashadi.”

Suhbatning dastlabki jumalaridayoq bayram arafasidagi shukuh, hayajon va tayyorgarlik jarayonlari tasvirlanadi. “Aziz va hurmatli mehmonlarni kutib olish” an‘anasi Sharq xalqlariga xos mehmondo‘stlik fazilatining yorqin ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Mehmonlarning “taklifsiz ham borib kelishi” esa jamiyatdagi ijtimoiy yaqinlik, qo‘ni-qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat munosabatlarining mustahkamligini anglatadi. Bu jihat Navro‘zning faqat tantanali marosim emas, balki ijtimoiy birlikni ta‘minlovchi azaliy an‘ana ekanini ko‘rsatadi.

Bolalar uchun yangi kiyimlar tikilishi bayramning yangilanish va poklanish g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq. Yangi libos — yangi yil, yangi umid va yangi niyatlar timsolidir. Navro‘zning “yer yuzidagi eng ulug‘ va eng qadimiy milliy bayramlardan biri” sifatida ta‘riflanishi uning tarixiy ildizlariga, qadim sivilizatsiyalar davridan buyon yashab kelayotgan madaniy hodisa ekaniga ishora qiladi. Muallifning “faxrlanishimiz joiz” degan ta‘kidi esa milliy g‘urur va madaniy o‘zlikni anglash tuyg‘usini kuchaytiradi.

Suhbatning davomida qabriston ziyorati tasviri berilishi bayramning faqat shodiyona emas, balki xotira va hurmat bilan bog‘liq ma’naviy jihatini ochib beradi. Marhumlar qabrini ziyorat qilish

avlodlar o'rtasidagi ruhiy bog'liqlikni mustahkamlovchi, tarixiy xotirani asrovchi an'ana. Bu hol Navro'zning hayot va o'lim, o'tmish va kelajak, xotira va yangilanish o'rtasidagi uyg'unlik falsafasini aks ettiradi. Bolalarni ziyorat jarayoniga jalb qilish orqali esa milliy qadriyatlarning uzluksizligi ta'minlanadi. "Bu esa toshga o'yilgan naqsh hukmida mustahkam o'rinishadi" degan ibora kuchli badiiy metafora bo'lib, bolalikdan singdirilgan urf-odat va qadriyatlar inson qalbida abadiy muhrlanishini anglatadi. Zero, toshga o'yilgan naqsh singari o'chmas iz qoldiruvchi tarbiya milliy ong shakllanishining asosiy omilidir.

صبح زود بیدار شد. رفقای محترم جمع شدند، نشستیم سر تحویل دعای یا "مقلب القلوب" را بنای خواندن گذاشتیم و تکرار مینمودیم. هفت سین موجود بود.

Ertalab erta uyg'ondi. Muhtaram do'stlar yig'ildilar, (yil almashuvi) Navro'zning kirishi paytida o'tirdik, "Yo muqallibal-qulub" duosi ni o'qishni boshlab, takrorlab turardik. Haft sin ham hozir edi.

Badiiy adabiyotda, ramziy ma'noda tong — yangilanish, nur va hayotiy uyg'onish timsoli. Yil almashuvi arafasida insonning erta turishi nafaqat tashkiliy tayyorgarlik, balki ruhiy poklanish va ichki hushyorlikni ham anglatadi.

"Muhtaram do'stlar yig'ildilar" jumlasini Navro'zning ijtimoiy tabiatini ochib beradi. Ushbu bayram yakka tartibdagi hodisa emas, balki jamoaviy birlik, hamjihatlik va o'zaro hurmat asosiga qurilgan marosimdir. Yil kirish lahzasini birgalikda kutish vaqtning muqaddas bir onini umumiy ruhiy kechinma sifatida boshdan kechirish demakdir.

"Yo muqallibal-qulub" duosining tilga olinishi bayramning diniy-ma'naviy qatlamini yoritadi. Mazkur duo inson qalbining yangilanishi, taqdirning yaxshilik sari burilishi haqidagi iltijoni ifodalaydi.

Shuningdek, "Haft sin"ning hozir bo'lishi Eron va forsiy madaniyatga xos ramziy dasturxon an'anasini anglatadi. Haft Sin nomi "sin" harfi bilan boshlanuvchi yetti unsurdan iborat bezalgan dasturxon bo'lib, har bir unsur hayot, baraka, sog'liq, sabr va farovonlik timsolidir. Uning yil kirish onida hozir bo'lishi marosimning estetik va ramziy mukammalligini ta'minlaydi.

نوروز در ایران دو نوع بود یکی خاصه و یکی عامه. نوروز عامه اول فروردین ماه جلالی است که روز تحویل آفتاب به حمل است، و نوروز خاصه از روز اول تحویل تا ششم است که مخصوص دربار پادشاهان بود. پادشاهان ایران در این شش روز به فقیران بخششها می نمودند، عمال و وزرا علی قدر مراتبهم پادشاه خدمات سالیانه خود را از شاه خلعت و انعام می گرفتند. رجال مجرب کهنسال دور تخت پادشاه پره میزدند. محبوسین را آزاد میکردند. مالیات تبعه را تخفیف میدادند اکنون این قرارها. یکجا بر هم خورده و بالکلیه از میان رفته.

Eronlarda Navro'z ikki turga bo'lingan edi: biri xos (maxsus), biri esa ommaviy. Ommaviy Navro'z — Jaloliy taqvim bo'yicha 1-farvardin sanasida bo'lib, quyoshning Qo'chqor (Hamal) burjiga kirishi kuni hisoblanadi. Maxsus Navro'z esa yil almashuvi kunidan (tahvil) boshlab oltinchi kungacha davom etar edi va u faqat podshohlar saroyi uchun mo'ljallangan edi.

Eron podshohlari ushbu olti kun davomida faqirlarga ehson qilardilar, amallar va vazirlar esa o'zlarining yillik xizmatlari evaziga podshohdan xillat va in'om olardilar. Tajribali va yoshi ulug' shaxslar podshohning taxti atrofiga yig'ilardilar. Qamoqdagilarni ozod qilardilar. Fuqarolarning soliqlarini kamaytirardilar. Hozir esa, bu tartiblar butunlay bekor bo'lgan va to'liq yo'qolgan.

Muallif Navro'zning ikki ko'rinishga, ya'ni xos (maxsus) va ommaviy shakllarga ajratilganini ta'kidlar ekan, qadimgi Eron jamiyatida bayramning qatlamli va tartibli tuzilishga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Ommaviy Navro'zning Jaloliy taqvimi bo'yicha 1-farvardin kuniga to'g'ri kelishi va quyoshning Hamal burji (Qo'chqor) burjiga kirishi bilan bog'lanishi uning astronomik asosga ega ekanini bildiradi. Bu jihat Navro'zning nafaqat madaniy, balki ilmiy-astronomik hodisa sifatida ham qadrlanganini ko'rsatadi. Yil boshi quyosh harakati bilan belgilanishi Sharq sivilizatsiyalarining kosmik tartib va inson hayoti o'rtasidagi uyg'unlikni teran anglaganidan dalolat beradi.

Maxsus Navro'zning "tahvil" — yil almashuvi lahzasidan boshlab olti kun davom etishi va saroy marosimlari bilan cheklanishi esa bayramning siyosiy-mafkuraviy qirrasini ochib beradi. Bu kunlarda podshohning faqirlarga ehson berishi, qamoqdagilarni ozod qilishi, soliqlarni kamaytirishi kabi amaliy choralar davlat hokimiyatining adolat va saxovat timsoli sifatida namoyon bo'lishiga xizmat qilgan. Bunday marosimlar hukmdorning ilohiy adolat g'oyasiga yaqinligini, uning xalqparvar va muruvvatli shaxs sifatida talqin etilishini mustahkamlagan.

Amaldor va vazirlarning yillik xizmatlari uchun xillat va in'om olishlari esa davlat boshqaruvi tizimida sadoqat va xizmat qadrlanganini anglatadi. Malakali va yoshi ulug' kishilarning taxt atrofida to'planishi donishmandlik va tajribaga hurmat ifodasi bo'lib, siyosiy qarorlar ramziy ravishda oqsoqollik an'anasi bilan uyg'unlashtirilganini ko'rsatadi. Shu tariqa Navro'z nafaqat xalq bayrami, balki davlat boshqaruvining ma'naviy-legitim asosini mustahkamlovchi muhim marosim vazifasini bajargan.

Subatning yakuniy qismida esa ushbu tartiblarning bugungi kunda yo'qolib borayotganiga ishora qilinadi. Bu ohangda ma'lum darajada nostalgiya kayfiyati seziladi: muallif tarixiy marosimlarning ijtimoiy adolat va muruvvatni targ'ib etuvchi jihatlari yo'qolganidan taassuf bildiradi. Badiiy jihatdan bu kontrast — o'tmishdagi tartib-intizom va bugungi uzilish tarixiy xotiraning qadri haqida o'quvchini mushohadaga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Abdurahim Tolibov Tabriziy ijodi Eron ma'rifatparvarlik tafakkurining shakllanishida muhim bosqichni tashkil etadi. U o'z asarlarida jamiyat taraqqiyotini ilm-fan, ongli tarbiya va qonun ustuvorligi bilan bevosita bog'laydi hamda milliy uyg'unishning asosini ma'rifatda deb biladi. Ayniqsa, "Kitobi Ahmad" asari orqali muallif murakkab ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy masalalarni dialog shaklida sodda va ta'sirchan tarzda bayon qilib, o'quvchini fikrlashga, sabab-oqibat bog'liqligini anglashga undaydi.

Asarda tasvirlangan Navro‘z bayramining nishonlanishi misolida milliy an‘ana va qadriyatlarning nafaqat maishiy urf-odat, balki jamiyatni birlashtiruvchi, tarixiy xotirani mustahkamlovchi va ma‘naviy yangilanishni ta‘minlovchi omil ekani ochib beriladi. Navro‘zning ommaviy va saroy shakllari haqidagi mulohazalar esa bayramning ijtimoiy hamda siyosiy-mafkuraviy ahamiyatini ko‘rsatadi: u adolat, saxovat va davlat boshqaruvida mas‘uliyat tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Tolibov asarida milliylik va zamonaviylik o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilmaydi, aksincha, ular uyg‘un holda talqin etiladi. Muallif milliy qadriyatlarni saqlagan holda jamiyatni yangilash, tarixiy xotira va ma‘rifat asosida taraqqiyot sari intilish g‘oyasini ilgari suradi. Bu esa uning qarashlarini nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi ilmiy va ma‘naviy tafakkur uchun ham dolzarb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. عبد الرحيم طالبوف .كتاب احمد .انتشارات شبكير
2. Alibekova, Patimat Magomedona, Nouri. Abdolrahim Talibov: Iranian Enlightenment Writer and Dagestan. History of Foreign Relations 23 (6), 65-78, 2005. Google scholar
3. <https://share.google/0naOFNwPUDS04zL0x>
4. A detailed history of calcium orthophosphates from 1770s till 1950. Sergey V. Dorozhkin. 1 August 2013, ScienceDirect
5. <https://www.ieg-mainz.de/en/research/research-projects/das-streichholz-eine-europaeische-wirtschafts-technik-und-umweltgeschichte>